

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAZZOQOV ELDOR G‘OFIRJONOVICH

**ABDULLA QODIRIY ROMANLARI TILINING O‘ZIGA XOS
GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Abdurazzoqov Eldor G‘ofirjonovich

Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari 3

Абдураззоков Элдор Гофиржонович

Грамматические особенности языка в романах Абдуллы Кадыри 25

Abdurazzoqov Eldor G‘ofirjonovich

The specific grammatical features of language of the novels

by Abdulla Kadiri51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications55

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAZZOQOV ELDOR G‘OFIRJONOVICH

**ABDULLA QODIRIY ROMANLARI TILINING O‘ZIGA XOS
GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.tai.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Azimov Inomjon Mamasodiqovich**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich**
filologiya fanlari doktori, professor
Sayidov Yoqub Siddiqovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "30" yanvar soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri Shahrisabz tor ko'chasi, 2-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 700170, Toshkent shahri Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 7 » yanvar kuni tarqatildi.
(2023-yil « 7 » yanvar da 15 - raqamli reyestr bayonnomasi).


D.S. Xudoyberganova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor
G.M. Ismoilov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, f.f.n.,
katta ilmiy xodim
Sh.N. Ko'chimov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrdan boshlab badiiy matnga lingvopoetik, lingvomadaniy, funksional-semantik nuqtai nazardan yondashuvga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, badiiy matnda qo'llangan grammatik birliklarning funksional-semantik tahlili orqali har bir grammatik vositaning lingvistik tizimda tutgan o'rni belgilanmoqda. Jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati qanchalik muhim bo'lsa, uning tadqiq etilishi, muhofaza qilinishi, boytib borilishi ham shunchalik muhimdir. Zamonaviy tilshunoslikda qo'lga kiritilayotgan tahlil usullari orqali badiiy matnni leksik-grammatik, stilistik, pragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik tadqiq qilish zaruratga aylanib bormoqda. Shuningdek, tilning o'ziga xos milliy xususiyatlarini, shu tilda ilk bora yaratilgan badiiy matnlarni lisoniy tahlil qilish orqali tadrijiy taraqqiyotini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda romanchilik maktabining yirik vakili sifatida tanilgan Abdulla Qodiriy o'zbek tilida birinchi bo'lib mukammal roman namunasini yaratdi. Mazkur adabiy meros – milliy romanchiligimiz gultoji, millatning o'ziga xosligini yorqin ifodalagan ulkan asar. Romanning bu darajada muvaffaqiyatli bo'lishi, albatta, ijodkorning mahoratiga bog'liq, ammo yozuvchi asar yozishda til vositalaridan qanday foydalanganligini ilmiy tekshirib ko'rish lozim. Shu bois tilshunosligimiz, xususan, o'zbek tilining kelajagini, tadrijiy taraqqiyotini mazkur romanlarni chuqur ilmiy tadqiq etgan holda belgilash mumkin. Tanlangan dissertatsiya mavzusi, avvalo, romanning muvaffaqiyatini ta'minlagan til birliklari tahlili, xususan, asarda grammatik vositalarning bajargan ulkan vazifalarini ochib berishi nuqtai nazaridan ham **dolzarb** hisoblanadi.

Mamlakatimizda ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar asosida o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini har taraflama o'rganish hamda tavsiflash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Badiiy so'z ustalarining mahorati lisoniy imkoniyatdan yuqori darajada foydalanishi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishi bilan belgilanadi. Zero, "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"¹. Binobarin, "Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda"². Lekin o'zbek tilining leksik tarkibida qo'llanilish jihatidan o'zlashma qatlamga oid so'zlar faollashib borayotganligi, ayrim olinma so'zlarning mos muqobili, ba'zan munosib so'z yasovchi affikslarning topilmayotgani badiiy matnlarni, xususan, jadidchilik davri asarlarini lingvistik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – № 196 (6860).

² uza.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son Qarori.

jihattan tahlil qilish, tadqiq etish va zamonaviy holatda amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmonida mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til bu – imkoniyat bo‘lib, har bir ijodkor asarida maqsadga ko‘ra turlicha voqelanadi. Hosilaning xususiyatlari esa tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan har xil metodologik va metodik asoslarga ko‘ra o‘rganiladi. Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari jahon va o‘zbek tilshunosligida keng o‘rganilgan³, til sathlari lingvostilistik⁴, lingvopoetik⁵ nuqtai

³ Виноградов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – 226 с.; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М., 1991. – 445 с.; Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – 151 с.; Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – М.: Русский язык, 1988. – 158 б.; Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 26 с.; Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1969. – 187 б. Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 28 б.; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 28 б.; Чарьев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Г. Гуляма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 28 б. Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 28 с.; Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 28 б.; Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 28 б.; Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 1996. – 28 б.; Сайидов Ё.. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Рахматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчили гапларнинг синтактик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.

⁴ Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достонининг тили ва стили: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1949. – 188 б.; Мамадов Х. Лексико-стилистикальные особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 26 б.; Шомаксудов А. Муқимий сатираларининг тили. – Тошкент, 1970; Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1975. – 28 б.; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 28 с.; Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 28 б.; Боймирзаева С. У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 24 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.; Қўчқорова М. Абдулла Қаҳҳор адабий-танқидий публицистикасининг мавзувий таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, Тошкент, 2009, № 2. 52-55.

⁵ Мирзаев И.К. Проблем лингвопоэтической интерперетации стихотворного текста: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Тошкент, 1991. – 28 б.; Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1987. № 4. – Б. 59-56.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар

nazardan atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, badiiy va publitsistik matnlar tahliliga doir T.Jumayev, Z.Xolmanova, R.Normurodov, Y.Sayidov, F.Babadjanov, S.Boymirzayeva, M.Tojiboyev, A.Xalikov, A.Xasanov, S.Normamatov, S.Maxsumova, X. Xamrayeva⁶ va boshqalarning ishlarida badiiy asar tilini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy muammolar to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Shu bilan birga Abdulla Qodiriy asarlari tilining leksik, morfologik, sintaktik va boshqa jihatlari xususida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, X.Qahharova⁷, Z.Choriyeva⁸, L.Jalalova⁹, X.Kadirova¹⁰, A.Qahramonov¹¹, S.Ziyotova¹² kabilarning tadqiqot ishlari hamda O‘Lafasov¹³ va M.Abdiyevlar¹⁴ning Abdulla Qodiriy asarlari tiliga bag‘ishlangan turkum maqolalari ham biz tanlagan mavzu doirasidagi muhim tadqiqotlardan hisoblanadi.

Biroq o‘zbek romanchiligining asoschisi – Abdulla Qodiriy romanlarida grammatik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari alohida tadqiq etilmagan.

Yozuvchi romanlarida milliy xarakterni ifodalovchi grammatik birliklar maxsus o‘rganilmagan.

boшлари ўзбек шеърятининг лингвопoeтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.

⁶ Жумаев Т. Умар Бокий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 24 б.; Холманова З. “Шайбонийхон” дostonи лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Normurodov P. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Бабаджанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Халиков А. “Гўрўғлининг туғилиши” дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 24 б.; Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 52 б.; Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 26 б.; Normamatov C. Абдулла Авлоний шеърятининг лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 25 б.; Хамраева Х. Озод Шарафиддинов публицистикасининг тили ва услуби: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 283 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2010. – 321 б.; Махсумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс.– Тошкент, 2012. –150 б.; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Қазақова Н. Ғафур Ғулом насрий асарларининг прагматингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2019. – 140 б.; Қобилов Ў. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 53 б.; ва бошқалар.

⁷ Қаҳҳарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 28 б.

⁸ Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.

⁹ Жалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.

¹⁰ Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 126 б.

¹¹ Қаҳрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 136 б.

¹² Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Тошкент, 2022. – 154 б.

¹³ Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006, №3. Б. 56.

¹⁴ Абдиев М. Абдулла Қодирий ва ўзбек адабий тили. //Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент – №12. – Б. 29.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining o'zbek tilshunosligi kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til masalalarining antropotsentrik tadqiqi" mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qodiriy romanlari matnidagi grammatik vositalarni tahlil qilish, ijodkorning individual ijodiy manerasiga xos xususiyatlari, tildan foydalanish mahorati, so'z tanlash va qo'llashdagi o'ziga xosliklari hamda har bir til birligining asar muvaffaqiyatidagi hissasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida badiiy matn tahliliga doir tadqiqotlarni o'rganish, ularga munosabat bildirish orqali Abdulla Qodiriy romanlari tilini lisoniy tadqiq etish;

Abdulla Qodiriy asarlarida o'z va o'zlashma so'z yasovchi affikslarning o'ziga xos xususiyatlari, grammatik vositalardan foydalanishning qiyosiy tahlilini olib borish;

romanlar matnida ishlatilgan mustaqil va yordamchi so'zlar, undov va modal birliklarning o'ziga xos uslubda qo'llanilishini ochib berish;

Abdulla Qodiriy romanlarida sodda gapning ifodalanishi, muallifning o'z g'ayri nutqidan foydalanish mahoratini tahliliy o'rganish;

yozuvchining to'liqsiz gaplardan foydalanish mahoratini aniqlash, tilshunoslikda sodda gap sintaksisining takomillashish jarayonini tahliliy tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekt sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari matni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Abdulla Qodiriy romanlari tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyoslash, zidlash, tavsiflash, kontekstual, distributiv, transpozitsion, lingvopoetik va uslubiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Qodiriy romanlari matnida qo'llanilgan grammatik vositalarning badiiy matndagi formal-funksional xususiyati, makon va zamon nuqtai nazaridan tadarriy taraqqiyoti ochib berilgan;

Abdulla Qodiriy romanlari matnida asar muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil va yordamchi so'zlar hamda grammatik shakllarning qo'llanish uslubi bugungi adabiy me'yorlardan sezilarli farq qilishi aniqlangan;

milliy roman matnida yuksak badiiylik, nutq va muloqot manzaralarini ifoda qilgan sintaktik birliklar hozirgi o'zbek adabiy tili sintaktik birliklariga nisbatan qiyosiy tadqiq qilingan va to'liqsiz gaplar o'zbekona nutq madaniyatini ifoda qilishda faol ishtirok etishi asoslab berilgan;

hozirgi o'zbek adabiy tilida milliy tilimiz sofligini saqlagan holda so'z yasashini yanada rivojlantirish, nutq va muloqot shakllarini takomillashtirish uchun muqobil sifatida ayrim o'zbekcha so'zlar, yasovchi affikslar, yasalmalar tanlab olingan va ularni amalda qo'llash milliy ahamiyatga ega ekanligi tahlillar

orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Abdulla Qodiriy romanlari Yangi O‘zbekiston o‘quvchisining dunyoqarashini, badiiy didini shakllantirish va yanada yuksaltirish hamda jamiyatning milliy va ma‘naviy-ma‘rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

o‘zbek romanchiligi badiiy tafakkur tadrijining lingvistik omillarini tahlil va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar lingvistika sohasi uchun, xususan, o‘zbek tili grammatikasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi, badiiy matnning lingvistik tahlili, nutq madaniyati va uslubiyati, matn tilshunosligi, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek tilshunosligi tarixi kabi fanlardan yaratiladigan darslik, o‘quv qo‘llanma hamda o‘zbek tili morfemik lug‘atining mukammallashuvi uchun xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot natijalari filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarining bilim va malakasini oshirishda manba bo‘lishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, usullar va nazariy ma‘lumotlarni berishda ishonchli manbalarga tayanilgani, metodologik mukammalligi, qiyoslash, zidlash, tavsiflash, kontekstual, distributiv, transpozitsion, lingvopoetik, uslubiy tahlil usullaridan foydalanilgani, qator ilmiy maqola va tezislarda ko‘rinishida bayon qilinganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ushbu ish o‘zbek tili lingvopoetikasini takomillashtirishga xizmat qiladi, badiiy matnning lingvistik tahlili, nutq madaniyati va uslubiyati, matn tilshunosligi, o‘zbek tili tarixi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek tilshunosligi tarixi, shuningdek, qiyosiy-tipologik usullarni qo‘llagan holda tilshunoslikda yangi fundamental tadqiqotlar yaratishda nazariy asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning ilmiy xulosalaridan oliy ta‘lim muassasalarida nazariy tilshunoslik, matn tilshunosligi bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, ixtisoslik fanlarini o‘qitish, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “Badiiy matnning lingvistik tahlili”, “Nutq madaniyati va uslubiyati”, akademik litseylar va umumta‘lim maktablari uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratishda, ommaviy axborot vositalarida jadid adabiyoti namoyandalarining o‘zbek tili rivojidadagi rolini targ‘ib etishda muhim manba bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini o‘rganish asosida:

Abdulla Qodiriy romanlari matnida qo‘llanilgan grammatik vositalarning badiiy matndagi formal-funksional xususiyati, lisoniy imkoniyatlarining makon va zamon nuqtai nazaridan tadqiqiga oid tahlillardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-FI-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional

soʻz yasalihi (“Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке”) mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (OʻzFA Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 3-iyundagi 1701/119-son maʼlumotnomasi). Natijada milliy tilning sofligini saqlagan holda soʻz yasalihini yanada rivojlantirish, nutq va muloqot shakllarini takomillashtirish, soʻzning konnotativ maʼnolarining mustaqillashishi, yangi soʻzlarning yuzaga kelishida milliy-maʼnaviy omillarning taʼsiri nazariy jihatdan asoslangan;

matn taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi naql va maqollarda hamda nutq va muloqot manzaralarini ifodalashda toʻliqsiz gaplarning faol ishtirok etishi toʻgʻrisidagi ilmiy natijalar Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (OʻzFA Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 3-iyundagi 1701/119-son maʼlumotnomasi). Natijada naql-maqollarning milliy-maʼnaviy, ijtimoiy-tarixiy ildizlari xalq tilining milliy tabiati bilan uzviy aloqada ekanligi ochib berilgan;

nutqning taʼsirchanligini taʼminlashga xizmat qiluvchi mustaqil va yordamchi soʻzlar hamda grammatik shakllarning qoʻllanishi, muallifning tildan foydalanish mahorati, oʻziga xos uslub yaratishida lisoniy vositalarning oʻrni va ahamiyati haqidagi maʼlumotlardan Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” telekanali orqali eʼfirga uzatilgan “Munosabat”, “Assalom Oʻzbekiston” koʻrsatuvlarining ssenariysini tayyorlashda samarali foydalanilgan (Oʻzbekiston teleradiokompaniyasining 2022-yil 21-noyabrdagi 01-13-1924-son maʼlumotnomasi). Natijada ushbu telekoʻrsatuvlarning mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro konferensiyada muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 11 ta ilmiy maqola nashr etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda eʼlon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 131 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning oʻrganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishiga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Abdulla Qodiriy romanlarida grammatik vositalarning ifoda xususiyatlari**” deb nomlangan. Bobning “Badiiy matnlarda grammatik vositalarning funksional xususiyatlari” nomli birinchi faslida tilshunoslikda badiiy matnning lingvistik aspektda o‘rganilishi masalasiga munosabat bildirilgan, shuningdek, badiiy matnda qo‘llangan grammatik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.

Jahon tilshunosligida M.M.Baxtin, N.D.Arutyunova, A.V.Maslova, F.F.Fortunatov L.G.Babenko, M.S.Jurkova, V.V.Vinogradov, I.R.Galperin, V.A.Pishalnikova kabi tilshunoslar tomonidan badiiy matnning eng muhim kategoriyalari ishlab chiqilgan va uni tizimli lingvistik tahlil qilishning yaxlit modellari taklif qilingan¹⁵.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvistik tahlili I.K.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev, M.Hakimov, G.Muhammadjonova, S.Boymirzayeva, S.Maxsumova, D. Xudoyberganova, N.Qazaqova, O‘.Qobilov va boshqalarning tadqiqot ishlarida turli aspektlarda amalga oshirildi.¹⁶ Aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar juda ko‘p. Badiiy matnning ko‘p qirrali ijod mahsuli ekanligi va har bir ijodkorning til vositalaridan foydalanish mahorati bir-biridan farqlanishi sababli matnning bu turi turli aspektdagi ilmiy izlanishlar obyekti bo‘la oladi.

Badiiy matn tahlilida tekshiruvchining pozitsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda yozuvchining estetik niyatini o‘rganish maqsad qilinganda “yozuvchi markazli” tahlil amalga oshiriladi va muallifning badiiy mahorati ochib beriladi. Agarda asar qahramonlarining ichki dunyosi, lisoniy madaniyatini tekshirish maqsad qilingan bo‘lsa, asar “qahramoni markazli” tahlil amalga oshiriladi. Shu bilan birga “matn markazli” tahlil ham mavjud bo‘lib, unda barcha til birliklari badiiy matni shakllantiruvchi birliklar sifatida lingvopoetik nuqtai nazardan tahlilga tortiladi¹⁷. Mazkur tadqiqotda “matn markazli” tahlil usuli orqali roman matnida uchragan grammatik vositalarning shakliy va funksional xususiyatlari bugungi adabiy me‘yorga qiyoslab o‘rganildi va matnni shakllantirishda adibning o‘ziga xos tarzda yondashuvi va grammatik vositalarni o‘zbek tilining milliy tabiatiga xos tarzda qo‘llaganligi aniqlandi.

Ma‘lumki, tilshunoslikda tilning holati, undagi xilma-xil xodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalarda ham asosiy daliliy material badiiy asarlardan olinadi. O‘zbek tilining muayyan tarixiy davrdagi holati, undagi grammatik o‘zgachaliklarni tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli

¹⁵ Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М., 2002. – 341 б.; Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.; Маслова В.А. Лингвистический анализ. Экспрессивность. – Москва: Юрайт, 2018. – С.83.; Fortunatov F.F. Сравнительное языковедение. Литография с машинописи. – М., 1898,. – 137 с.; Лингвистический анализ художественного текста. Практикум. – М., 2009. – 465 с.; Журкова М.С. Лингвосинергетические особенности смыслоформирования в романах-антиутопиях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2021 – 28 б.; Vinogradov V.V. Русский язык (грамматическое учение о слове). 2-е изд. / М.: Высш. шк., 1972. – 616 с.; Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.; Пишальникова В. А. Концептуальный анализ поэтического текста. – Барнаул, 1991. – 88 с.

¹⁶ Qarang: Yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqotlar.

¹⁷ Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.15.

jihatlarni ilmiy tadqiq etish maqsadi o'zbek tilida yaratilgan ilk romanlar tilini morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilishni taqozo etadi.

A.Qodiriy romanlari matnida quyidagi grammatik vositalarning o'ziga xos tarzda qo'llanishi kuzatiladi:

1. Kelishik shakllarining qo'llanish xususiyatlari. A.Qodiriy romanlari matnida kelishik shakllarining qo'llanishida muallif idiostiliga xos jihatlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, adib ko'p hollarda tushum kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'llaganligi kuzatiladi. Masalan: *Toshkand aholisi kimdan ko'mak so'rashg'a ham bilmaydir.* ("O'tkan kunlar", 16-bet)

Shuningdek, romanlar matnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida qo'llangan holatlar kuzatiladi. Masalan: ... – *Faqat ul manim vositamda to'yni boshlash uchun sizdan izn olg'ali kelgan ekan. Men bu to'g'rig'a sizdan javob olib bermakchi bo'ldim.* ("Mehrobdan chayon", 52-bet)

Adib ba'zan jo'nalish kelishigi qo'shimchasini egalik qo'shimchasi o'rnida qo'llaydi: *Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la... yigit.* ("O'tkan kunlar", 7-bet)

Shuningdek, romanlar matnida jo'nalish, tushum kelishiklarining belgisiz qo'llangan holatlari uchraydi: – *Men sizning Marg'ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim.* ("O'tkan kunlar", 9-bet); – *Xotin ko'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lsin?* ("O'tkan kunlar", 11-bet)

A.Qodiriy romanlari matnida qaratqich kelishigining -im shaklida qo'llanishi ham adib uslubining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi: *Agarda xon ko'tarish manim qo'limda bo'lsa edi, xon qilib Otabekni ko'tarar edim.* ("O'tkan kunlar", 19-bet); *Manim bo'lsa bir tiyin pulim yo'q.* ("Mehrobdan chayon", 28-bet)

A.Qodiriy o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini jo'nalish kelishigi o'rnida qo'llashi orqali ham o'ziga xos uslub yaratilganligi kuzatiladi: *So'zingizning to'g'rilig'ida shubha yo'q, – dedi, – ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquttab bo'lsin.* ("O'tkan kunlar", 10-bet); *Bu andishaning haqlig'ida shakl yo'q, Anvar, – dedi va dasturxondagi donlarni terib, og'zig'a tashladi.* ("Mehrobdan chayon", 81-bet)

Misollar tahlilidan anglashiladiki, A.Qodiriy badiiy matn yaratishda o'zbek tili kelishiklaridan foydalanar ekan, o'ziga xos individual uslubini yaratilgan.

2. Egalik shaklining qo'llanish xususiyatlari. A.Qodiriy romanlari matnida 3-shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasining pleonastik qo'llanishi ko'p uchraydi. Adib egalik qo'shimchasini takror qo'llash orqali matnda ta'kid ma'nosini hosil qilishga erishadi:

Zaynab chetka qarab ko'z yoshisini to'kdi. ("O'tkan kunlar", 309-bet); *Oftob oyim ko'z yoshisini duv to'kib yubordi.* ("O'tkan kunlar", 353-bet); *Anvar o'zini favqulodda tekis ushlab borar, hozir unda boyag'i o'zgarishlarning hech birisi ham ko'rinmas edi.* ("Mehrobdan chayon", 194-bet)

3. Shaxs-son shakllarining qo'llanish xususiyatlari. A.Qodiriy badiiy matn yaratishda shaxs-son qo'shimchalarini ham o'ziga xos tarzda qo'llab, ushbu grammatik vositaning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirilgan. Masalan, adib uchinchi shaxs ko'plikdagi grammatik shakllarni jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan ham qo'llagan. Natijada bu grammatik shaklni qabul qilgan birliklar gap

kesimi bilan nafaqat shaxsda, balki sonda ham moslashib kelgan. Masalan: *Saroy qop-qorong'i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo'rozlarning qichqirishlarig'ina buzar edilar.* ("O'tkan kunlar", 22-bet)

4. Zamon shakllarining qo'llanish xususiyatlari. A.Qodiriy romalarida kelasi zamon shaklining hozirgi zamon shakli o'rnida qo'llanganligi kuzatiladi. Adib zamon shakllarini biri o'rnida ikkinchisini qo'llash orqali ularga o'ziga xos uslubiy ma'no yuklay olgan: *Bo'lmasa aholi xong'a shikoyatnoma yozmaydirmi? – Nechanchi shikoyatnomani so'raysiz, – dedi.* ("O'tkan kunlar", 16-bet); *Dahlizda uni kutib turg'an xudaychi yana tanbeh qildi: – Men sizga aytaman, Anvar.* ("Mehrobdan chayon", 41-bet)

5. Dona son grammatik shakllarining qo'llanish xususiyatlari. A.Qodiriy romanlari matnida dona son grammatik shaklining qo'llanishi zarur bo'lgan o'rinda tushirib qoldirilishi kuzatiladi. Adib son shakli ko'rsatkichini tushirib qoldirish orqali o'ziga xos idiostilini yaratadi. Masalan: *Xotining ko'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil.* ("O'tkan kunlar", 10-bet)

Xullas, A.Qodiriy romanlari matnida o'zbek tilining milliy xususiyatlari namoyon bo'lgan. Adib grammatik shakllarni o'ziga xos tarzda qo'llash orqali ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Birinchi bobning "**Abdulla Qodiriy asarlarida o'z va o'zlashma so'z yasovchi affikslarning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi faslida adib romanlari matnidagi o'z va o'zlashma so'z yasovchi affikslarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan.

O'zbek tiliga xos bo'lgan muhim bir jihat borki, tilimiz tabiatiga ko'ra asosga birikib keladigan barcha affikslar, odatda, shu asosdan keyin qo'shiladi. Umuman, asos oldidan qo'shimcha qo'shilishi tilimiz tabiatiga yotdir. A.Qodiriyning romanlari matnida fors-tojik tilidan o'zlashgan old qo'shimchalar deyarli qo'llanmagan, yasovchi qo'shimchalar asosdan keyin qo'shib, yangi so'z yasashga xizmat qilgan. Masalan:

– *Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.* ("O'tkan kunlar", 7-bet); *Anvarning "tanishsizlik va uysizlik" fikrining aksicha fotihaxonlar ham ko'rinib qoldilar,...* ("Mehrobdan chayon", 46-bet); *Hasanalining so'rag'uchig'a bekning qiz yoqdirmaslig'ini sabab ko'rsatib, shu kungacha uylanmay kelganligini tafsili bilan hikoya qilib berishidan so'ng ul toqatsizlang'andek bo'ldi.* ("O'tkan kunlar", 20-bet)

Ushbu qatorda *toqatsizlanmoq* yasalmasi hozirgi o'zbek tili grammatik tabiatiga mos tarzda yasalgan bo'lsa-da, bugungi kunda bu so'zning o'rnida ko'pincha *betoqat bo'lmoq* sinonimidan foydalaniladi. Demak, ayrim yasama so'zlar faqat badiiy asarlardagina uchramoqda.

"O'tkan kunlar" asarida juda ko'p sof o'zbekcha yasama so'zlar qo'llangan. Ammo ulardan bugungi kunda deyarli foydalanmay qo'yildi. Masalan: *Bu o'ng'aysiz holatdan chiqish va, so'zg'a ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko'rinar edi. – Marg'ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?* ("O'tkan kunlar", 9-bet)

Ushbu misoldagi *hushlandingizmi* tarzidagi o‘ziga xos yasalma ham yozuvchining so‘z yasash mahoratidan dalolat beradi. Berilgan misoldagi “*Marg‘ilonni qanday topdingiz*” jumlasini “*Marg‘ilon sizga yoqdimi?*” mazmunida ishlatilgan. Bunday qo‘llanish o‘sha davrda o‘zbek tiliga turk tilining ta’siri orqali yuzaga kelgan. U turkcha “*Marg‘ilonni nasl buldungiz*” jumlasining tarjimasini hisoblanadi. XX asrning boshlarida turk tilining o‘zbek tiliga ta’siri kuchli bo‘lganligi sababli A.Qodiriy romanlarida ham shunday jumlar ko‘zga tashlanadi. Adib asarlarida qo‘llangan yasalmalarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shakllari bilan qiyosini quyidagi jadvalda ko‘rsatamiz:

Yasalmalar qiyosi

№	Asarda uchraydigan shakli	Hozirgi adabiy tildagi shakli	O‘zgarishga uchramagan grammatik shakllar
1.	vaqtsiz	bevaqt	–
2.	toqatsiz	betokat	toqatsiz
3.	tinchsizlamoq	notinch qilmoq	–
4.	xotinliq	xotinli	–
5.	rizosizlik	norozilik	–
6.	ixtiyorsiz	beixtiyor	–
7.	xabarsiz	bexabar	–
8.	uylanguchi	uylanuvchi	–
9.	e’tiborsiz	bee’tibor	e’tiborsiz
10.	iltifotsiz	beiltifot	iltifotsiz
11.	umidsiz	noumid	–
12.	o‘rinsiz	noo‘rin	o‘rinsiz
13.	to‘qig‘uchilik	to‘quvchilik	–
14.	farqsiz	farqi yo‘q	–
16.	e’tirozlanib	e’tiroz bildirib	–
17.	kelishimsiz	g‘alati	–
18.	bir oysiz	bir oy bo‘lmasdan	–
19.	g‘arazsiz	beg‘araz	–
20.	haqsizlik	nohaqlik	–
21.	nuqsonsiz	benuqson	–
22.	bahrasizlik	bebahralik	–
23.	ta’sirsiz	ta’sir etmagan	–
24.	haqsiz	nohaq	–
25.	parvosiz	beparvo	–
26.	vafosizlik	bevafolik	–
27.	hisobsiz	behisob	–
28.	ozorsizg‘ina	beozorgina	–
29.	rahmsiz	berahm	–
30.	ma’nisiz	bema’ni	–
31.	rioyasiz	rioya etmay	–
32.	nomussizona	benomuslarcha	–
33.	daraksiz	bedarak	–
34.	hushsiz	behush	–
35.	buklavsiz	buklanmagan	–
36.	kuchlanib	kuch sarflab	–
37.	xushlanmoq	xush ko‘rmoq	–
38.	yolg‘onlashidan	yolg‘on gapirishidan	–

Berilgan jadvalda A.Qodiriy asarlarida qo‘llangan yasalmalardagi prefiks – suffiks, sodda so‘z – qo‘shma so‘z o‘zgarishlari qiyoslangan.

Birinchi bobning uchinchi faslida “**Abdulla Qodiriy romanlarida qo‘llangan grammatik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan. Ushbu faslda “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan grammatik vositalarning ifoda imkoniyatlari Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan grammatik vositalar bilan qiyoslangan. Tahlillar “Kecha va kunduz” romanida qo‘llangan til vositalari hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga deyarli mos kelishini ko‘rsatdi.

“O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan grammatik vositalar esa bugungi adabiy til me‘yorlaridan biroz farq qiladi. Masalan: *Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigi ochilg‘anidan, sham’ yoqilib, o‘rin yozilg‘anidan go‘yo xabarsiz kabi ustung‘a suyalg‘ancha qotib turar edi.* (“O‘tkan kunlar”, 21-bet)

Ushbu misolda *kira bermadi (kirmadi), ochilg‘anidan (ochilganidan), o‘rin yozilg‘anidan (o‘rin yozilganidan), xabarsiz kabi (bexabardek)* tarzidagi hozirgi adabiy tildan farq qiluvchi grammatik shakllar mavjud.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan keltirilgan quyidagi parchada esa grammatik shakllar kam holatda o‘zgarishga uchragan: – *Qachon? Zebining bu kalta savolidan Salti ko‘p narsani angladi. Bu savol Zebining iloji bo‘lsa shu kun paranjisini qo‘liga olib (yopinib ham o‘tirmasdan!), shu yerdan uzoqlashmoq uchun talpinganini ko‘rsatardi. Shu uchun Salti: – Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! – dedi. Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 9-bet)

Ushbu misolda qo‘llangan *ketgali, nihoyasiz* so‘zlarida grammatik va so‘z yasalishidagi farqlar kuzatiladi. Ushbu so‘zlar hozirgi adabiy tilda *ketgani, benihoya* tarzida faol ishlatiladi.

A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg‘otish maqsadida “xon zamonlari”dan so‘z ochib, bo‘lib o‘tgan ayanchli voqealardan xalqqa saboq berishga erishgan. Voqealarni o‘quvchiga yorqin, ishonchli tasvirlab berish uchun o‘sha davr tilini batafsil o‘rgangan va qahramonlar nutqini individuallashtirishda ham o‘ziga xos grammatik vositalardan foydalangan. Quyidagi misollarda ajratib ko‘rsatilgan birliklar adibning individual nutq yaratishda grammatik vositalardan unumli foydalanganini ko‘rsatadi: *Hasanali Otabekda shu kungacha ko‘rilmagan qiziq bir holatka besh-olti kundan beri ajabsinib yurar edi. Hasanalini ajabsindirgan holat ham bekning shuning singari xayol ichida barchani unutilib qo‘yishi va boshqa ishlarga e‘tibor va parvosizligi edi.* (“O‘tkan kunlar”, 21-bet)

A.Qodiriy romanlarida shu zaylda bor mahorati bilan o‘zbek adabiy tilining boyligini, o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish etgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Abdulla Qodiriy romanlari tilining morfologik xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi faslida “Abdulla Qodiriy romanlarida ishlatilgan so‘zlarning morfologik tavsifi”ga e‘tibor qaratilgan. A.Qodiriyning so‘z turkumlaridan foydalanish mahorati haqida muayyan tasavvur hosil qilish uchun uning romanlarida qo‘llangan ayrim morfologik birliklar tahlilga tortildi.

Badiiy asar murakkab tuzilishga ega bo'lganligi bois, unda matnlarning barcha mazmuniy turlari uchraydi. Shu jihatdan A.Qodiriy romanlarida so'z turkumlarining ulushi ayrim matnlarning morfologik tahlili orqali aniqlanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

hikoya mazmunli matnda fikr, asosan, ot va fe'l turkumiga doir so'zlar asosiga qurilgan;

tasviriy matnda muallif, asosan, tub so'zlardan foydalangan, faqat fe'l so'z turkumiga doir birliklar qo'shma so'z shaklida ifodalangan;

dialogik matnda olmosh so'z turkumiga doir birliklar miqdori ortib borgan.

Adib, shuningdek, asarlarida juft va takroriy so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan: "*Yur, yur, itbachcha, jinni-minni bo'ldingmi?*" ("O'tkan kunlar", 185-bet)

Yana bir xarakterli jihat shundaki, A.Qodiriy romanlarida *janub, shimol, sharq, g'arb* otlari ko'cha yo'nalishlari va bino qismlariga nisbatan qo'llangan: "*Chuh*" dedi. *Ot ko'chaning sharqig'a qarab ketdi.* ("O'tkan kunlar", 186-bet); *Sultonali mirzo yura-yura o'rdaning chap muyushiga, qorovul yigitlardan birining yaqiniga yetib, u bilan so'rashdi, bir-ikki og'iz so'zlashib, o'rdaning sharqig'a yuzlandi.* ("Mehrobdan chayon", 107-bet)

Adib asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif yashagan davrda jamiyat shariat hukmlari asosida tartibga solinganligi, hatto vaqt o'lchovlari ham namoz o'qish vaqtlari nomi bilan bog'liq holda ifodalanganligi anglashiladi. Bu holatni quyidagi misolda kuzatish mumkin: *Undan keyin siz zindon xabarini bilib, xuftan chog'i menim olding'a kelingiz, Qobil aka.* ("Mehrobdan chayon", 143-bet)

O'zbek tilida fe'llarning sifatdosh shaklini hosil qiluvchi morfologik ko'rsatkichlar turli xil bo'lib, A.Qodiriy romanlari matnida faol qo'llangan sifatdoshning *-guchi* varianti bugungi davrga nisbatan istorizm hisoblanadi. Masalan: **Chiqg'uchi** *darboza yonida turg'an otliqdan cho'chibmi va yo o'zichami so'radi: – Kim otda turg'an? – Man, – dedi Otabek va o'zining mantiqsiz javobidan o'ng'aysizlanib tuzik javob berishka og'zini jo'blag'an ham edi, chiqg'uchi "siz kimsiz?" degan savol bilan uni to'xtatib qo'ydi.* ("O'tkan kunlar", 186-bet)

– *Marg'ilong'a shom vaqtida kirgan edim, ko'zlagan joyimni topolmay adashdim... – Qani bo'lmasa, juring biznikiga, mehmon, – aytkuchining so'z ohangidan o'rtoqliq bo'yi kelib Otabekning dimog'iga ursa ham: – Rahmat sizga aka dedi...* ("O'tkan kunlar", 187-bet)

Mazkur parchalarda qo'llangan *chiqg'uchi*, *aytkuchi* sifatdosh shakllari matnga tarixiy ruh berib turibdi.

A.Qodiriy romanlarida ayrim fe'llarning sinonimi qo'llanish doirasidan tashqariga chiqqanligini sezish mumkin. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida shaxslarga nisbatan qo'llanilishi kerak bo'lgan harakat qilmoq, urinmoq, intilmoq fe'llari narsaga nisbatan ishlatilgan: – *Man... bir musofir g'arib, – deb javob berdida, negadir tomishka intilgan ko'z yoshisini kuch bilan to'xtatib qoldi.* ("O'tkan kunlar", 187-bet)

Ma'lumki, *qo'nmoq* fe'lini aslida insonga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ishlatib bo'lmaydi, ammo adib uni insonga nisbatan ishlatib, funksional imkoniyatini yanada

kengaytirgan: *Eshikni ochishi bilan: – Otdan qo‘ningiz, mehmon, – dedi...* (“O‘tkan kunlar”, 187-bet)

A.Qodiriy romanlarida yana bir xarakterli so‘z qo‘llash holati kuzatiladi. Adib o‘zbek tilida *yemoq, ovqatlanmoq, taomlanmoq* so‘zlari bo‘la turib, personaji nutqida *xo‘rak qilmoq* so‘zini qo‘llaydi: – *Yo‘l bilan albatta ochiqqansiz, savzi-piyoz va go‘shlarim hammasi tayyor, faqat o‘choqqa olov yoqsam, xolos, o‘zim ham hali xo‘rak qilg‘anim yo‘q, ko‘b emas ozg‘ina, bir chimdimgina qilaman.* (“O‘tkan kunlar”, 188-bet)

Aslida *ovqat, xo‘rak, taom, yemish* sinonimik qatorida *taom* so‘zi shaxsga nisbatan ishlatiladi. So‘zlashuvda esa *ovqat* so‘zi faol qo‘llaniladi. Fors-tojik tiliga mansub *xo‘rak* so‘zi qushlarga nisbatan ishlatiladigan ot hisoblanadi. Bu so‘z asosida yasalgan *xo‘rak qilmoq* fe‘lining qo‘llanishi yozuvchining o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubi bo‘lib, ta‘sirchanlik uchun xizmat qilgan.

A.Qodiriy romanlarida *ovqat* oti o‘rnida *tomoq; ovqat qilmoq* fe‘li o‘rnida *tomoq qilmoq* fe‘lining ishlatilishi ham adibning so‘z qo‘llash uslubiga xos xarakterli jihatdir: *Tushlik osh vaqti bo‘ldimi, nima tomoq qilsamikin? Kumush Zaynabka qaradi: Nima tomoq buyuramiz? Sizdan so‘rayapti... Zaynabnisa yaxshi ko‘rgan tomoqni qilingiz, – dedi Kumush. Lag‘mon qilaymi? – deb Oybodoq Zaynabka qaradi. Tomoqqa ishtihom yo‘q, o‘zingiz bilganingizcha qilabering.* (“O‘tkan kunlar”, 339- bet)

Adib romanlarida qo‘llangan fe‘l so‘z turkumiga xos ayrim so‘zlarning yasalishi hozirgi adabiy til qoidalariga unchalik muvofiq kelmaydi. Masalan, *-la* fe‘l yasovchisining turli asoslardan fe‘l yasashi ma‘lum. Ammo bu yasovchining yolg‘on so‘ziga qo‘shilib kelishi biroz o‘ng‘aysiz: *Otabek o‘zining qip-qizil yolg‘onlashidan vijdoni oldida qizarindi.* (“O‘tkan kunlar”, 189-bet)

A.Qodiriy romanlarida sifatning qiyosiy darajasini hosil qiluvchi *-roq* affiksi mumtoz adabiyotda qo‘llangani kabi *-rak* shaklida ishlatilgan. Bu holat ham adibning badiiy nutq yaratishda grammatik vositalardan foydalanishidagi o‘ziga xos uslubini ko‘rsatadi. Masalan: *Miyasi hanuz tuzukrak muhokamaga qobil emas, kutilmagan bu hodisa o‘zi uchun foydaliqmi, zararlikmi – imtiyoz qilolmas edi.* (“Mehrobdan chayon”, 109-bet)

Bobning ikkinchi faslida “Abdulla Qodiriy romanlarida qo‘llangan yordamchi birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari” masalasi yoritilgan. Ma‘lumki, bog‘lovchi va ko‘makchilarning asosiy funksional belgisi “bog‘lash” bo‘lib, bu vazifa ular uchun o‘zgarimas, barqarordir. Yuklamaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z yoki gapga so‘roq, ta‘kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi qo‘shimcha ma‘no beradi va funksional “bog‘lash” belgisiga nisbatan beqaror, o‘zgaruvchan sanaladi, ya‘ni “bog‘lash” belgisi unda bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin¹⁸. A.Qodiriy romanlarida yordamchi so‘zlarning ushbu funksiyalari bevosita yuzaga chiqqan.

Adib romanlari matnida eng faol qo‘llangan yordamchi so‘z bu yuklamadir. Ayniqsa, so‘roq yuklamalari personajlar nutqida faol ishlatilgan. Masalan:

¹⁸ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.393.

1. – *Salomat bo'lingiz, – dedi Rahmat, – shuni ham sizdan so'rayin: o'lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz?* (“O'tkan kunlar”, 13-bet)

2. – *Hokimingiz juda zolim emish, bu to'g'ri so'zmi? – To'g'ri so'z, – dedi bek.* (“O'tkan kunlar”, 15-bet)

Birinchi misoldagi *aytilsa mumkinmi* grammatik shaklining qo'llanishi o'z davri uchun o'rinli. Ammo bugungi muloqotda uning o'rnida ishlatiladigan *aytilsa bo'ladimi* grammatik shakliga nisbatan unda ruxsat so'rash qat'iyroq ifodalanadi. Ruxsatning *ozor chekmasmisiz* tarzida so'ralishi nutqiy madaniyatni ifoda etadi. Bu o'rinda yuklama o'rnining o'zgartirilishi (ozor chekmaysizmi) mulozamatni yo'qqa chiqarishi mumkin.

“O'tkan kunlar” romani eski o'zbek tilining tugallangan davri va hozirgi o'zbek adabiy tilining boshlanish davrida yozilganligi inobatga olinsa, adib ikkinchi misoldagi *“Hokimingiz juda zolim emish, bu to'g'ri so'zmi?”* jumlasini eski o'zbek tili an'alariga asoslangan holda shakllantirgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu jumla bugungi adabiy til me'yorlariga ko'ra quyidagi tuzilishga ega bo'ladi: *Hokimingiz juda zolim emish, bu so'z to'g'rimi?*

O'zbek tilshunosligida *kabi* ko'makchisi bosh kelishidagi ot, sifatdosh ba'zan qaratqich kelishigidagi olmoshlar bilan keladigan ko'makchilar safiga kiritiladi.¹⁹ A.Qodiriy romanlari matnida *kabi* ko'makchisi *-dek, -day* morfologik shakllari o'rnida yasama sifat bilan qo'llanib, o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalab kelgan. Bu o'rinda ham yozuvchi o'ziga xos uslubdan foydalanib, *xabarsiz kabi, o'runsiz kabi, ixtiyorsiz kabi* singari ko'makchili qurilmalar hosil qilgan. Masalan:

1. *Hujra eshigini ochilganidan, sham' yoqilib, o'rin yozilganidan go'yo xabarsiz kabi ustunga suyalgancha qotib turar edi.* (“O'tkan kunlar”, 16-bet)

2. ... Ammo eng keyingi – *“boqiy so'zni Shayxi Sa'diydan o'qursiz deb xatni muxtasar qildim” jumlasini bir oz o'runsiz kabi edi.* (“Mehrobdan chayon”, 119-bet)

Bundan tashqari *kabi* ko'makchisining qaratqich kelishigini olgan kishilik olmoshlari bilan kelishi holatlari ham kuzatiladi: *Og'ir daqiqalarda arzimmas gapni ko'ngilga olish sizning kabi olijanoblar ishi bo'lur, deb kim o'ylasin.* (“Mehrobdan chayon”, 120-bet)

Bu o'rinda yozuvchi olmoshga *-ning* qo'shimchasini qo'shish orqali ta'kid ma'nosini hosil qilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida **“Abdulla Qodiriy romanlarida undov va modal so'zlarning qo'llanilishi”** masalasi tahlil qilingan. Ma'lumki, har bir millat tilida o'ziga xos ifoda tarziga ega undov so'zlar mavjud. O'zbek tilida ham milliy xususiyatga ega shunday undov so'zlar borki, suhbat davomida ulardan foydalanilmasa, subyektiv munosabat aniq yuzaga chiqmaydi. Bu *kabi* birliklar nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llaniladi. A.Qodiriy romanlari matnida ham personajlar nutqida undovlar turli nutq vaziyatlarida o'ziga xos ma'nolarda ishlatilgan:

1. Iztirobni ifodalash: *Kumushbibi ortiq chidalmadi, qo'rqunch bir tovush bilan hayqirdi: Oh, o'laman, ko'b so'zlama!* (“O'tkan kunlar”, 50-bet)

¹⁹ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1975 – Б. 542

